



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)
—
2022



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Омилхон ИСМАИЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizma-tasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantiriish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .	52
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	55
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошлангич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda labaratoriya xonalarini tashkil etish	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА.Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошлангич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошлангич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi	100
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	105
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiy tili va tibbiy matnlarning psixolingistik xususiyatlari	111
Илона ИСРАИЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalananishi.....	124
ANIQ VA TABIIY FANLAR	127
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiyl tahlili	127

Jetkerbay OTEPBERGENOV

Nukus davlat pedagogika instituti
informatika o'qitish metodikasi kafedrasи
dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: 3508766@mail.ru

TALABALARING MURAKKAB O'QUV MATERIALLARINI O'ZLASHTIRISHDA CHIZMA-TASVIRIY MODELLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish muammolari tahlil etilgan. Ayniqsa axborot ta'lim muhitida murakkab va katta xajmdagi o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizmag'tarviriy modellardan foydalanish talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda samara berishi haqidagi tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: kasbiy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchilar, axborot ta'lim muhiti, o'quv materiali, bilish faoliyati, kognitiv strategiyalar, tayanch konspekt, intellekt karta.

В данной статье анализируются проблемы развития когнитивной компетентности будущих учителей. Рекомендуется, чтобы использование графических моделей при разработке сложных и крупномасштабных учебных материалов, особенно в информационной образовательной среде, было эффективным в развитии когнитивной компетентности учащихся.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, будущие учителя, информационная среда обучения, учебный материал, познавательная деятельность, когнитивные стратегии, базовый конспект, интеллект-карта.

This article analyzes the problems of developing the cognitive competence of future teachers. It is recommended that the use of graphic models in the development of complex and large-scale learning materials, especially in the information educational environment, be effective in the development of students' cognitive competence.

Key words: professional competence, future teachers, information learning environment, teaching material, cognitive activity, cognitive strategies, basic synopsis, intelligence card.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning kredit-modul tizimi kompetensiyavi yondashuv bilan bevosita uyg'un amalgal oshirilib, modulli o'qitish texnologiyalarining natijasi sifatida bo'lajak mutaxassislarda tarkib toptiriladigan kompetensiyalar aks etadi. Shunday kompetensiyalarning biri bo'lajak mutaxassislarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish hisoblanadi. Kognitiv kompetentlik shaxs qobiliyatining tayanch turlaridan biri sanaladi. Shuning uchun zamonaviy sharoitda uni har bir mutaxassis egallashi lozim.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya oly ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadlarini ko'zda tutadi [1].

Kognitiv kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ta'lim oluvchilarda kasbiy ta'lim va

egallanayotgan kasbga motivatsion-qadriyatli yo'nalganlikni rivojlantirish, mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish texnologiyalari bilan qurollantirish, refleksiya va o'z-o'zini obyektiv baholash usullari, o'quv bilish-faoliyatini emotSIONAL-irodaviy boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish singari vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu kabi vazifalarni bajarishda kognitiv faoliyatning xilma-xil metod va usullaridan maqsadli foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda ta'lim mazmuni shaxsiy kognitiv faoliyat strategiyalarini o'zlashtirish hisobiga talabalar murakkab o'quv materillarini o'zlashtirib boradi.

Kognitiv strategiyalar quyidagi muayyan qadamlar ketma-ketligi, faoliyat bosqichlarini o'z ichiga oladi:

- topshiriqni o'qish;
- muammoni shakllantirish;
- muammoni hal etish variantlarini aniqlashtirish;
- qo'shimcha ma'lumotlarni izlash;
- bevosita topshiriq (muammolar, vaziyatlar) yechimini topish;
- natijalarini bayon etish va taqdim etish;
- o'z-o'zini tahlil etish, baholash va h.k.

Talabalarda kognitiv strategiyalarni rivojlantirish uch bosqichda amalga oshadi: 1) bilishga doir; 2) assotsiativ; 3) individuallashtirish. Bilishga doir bosqichda kognitiv strategiyalar avval egallangan bilimlarni aniqlashtirishga (muammoli suhbat) topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Assotsiativ bosqichda o‘zlashtirishga (il-o‘quv matnlari va ularga mos topshiriqlar) doir topshiriqlar taklif etiladi. Individuallashtirish bosqichida kognitiv strategiyalarning rivojlanganligini nazorat qilishga doir topshiriqlar taqdim etiladi.

Olim A.Piliginning fikricha, kognitiv strategiyalarni o‘zlashtirish jarayoni quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

1) kognitiv strategiyalar (fanga doir va umumiyy)ning talabalarning samarali tahlil etishi;

2) mavjud maqbul kognitiv strategiyalar(fanga doir va umumiyy)ning samarali refleksiyasi;

3) talabalarning individual va me’yoriy kognitiv strategiyalarni taqqoslay olishi;

4) fanga doir va umumiyy (shaxsiy-bilish tajribasi) individual kognitiv strategiyalarni maqsadli va mustaqil chuqurlashtirib borishni amalga oshirish [2]. A.A.Piliginning fikriga qo‘shilgan holda kognitiv faoliyat bilan bog‘liq bilish jarayonlarini majmuaviy dinamik tashkil etish sifatida kognitiv strategiyalarning mohiyatini tushunish quyidagi ketma-ketlikdan iborat:

- maqsad va unga erishish mezonlarining o‘zaro mosligi;

- natijalarga erishish bo‘yicha harakatlar;
- faoliyat jarayoniga tuzatishlar kiritish;
- olingan natijalarini qayd etish [3].

Ana shunga muvofiq kognitiv strategiyalarning quyidagi komponentlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- motivatsion – muammolarni anglash, faoliyat maqsadini belgilash;

- jarayonga doir – bilish faoliyatini bevosita loyihalash va amalga oshirish;

- refleksiv – faoliyatni baholash, natijalarini qayd etish.

Biroq, bizningcha, mazkur komponentlar sirasiga korrektsion komponentni ham kiritish lozim:

- korrektsion – agar vazifaga yechim topilmagan bo‘lsa, yoki noto‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, muammolarni hal etish usullarini aniqlashtirish.

Bo‘lajak pedagoglarning kognitiv strategiyalarni o‘zlashtirishi ilmiy va mehnat faoliyatining turli sohalarida o‘zlarining bilishga ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Bilish faoliyati jarayonida tahlil va umumlashtirish, tanqidiy fikrlash, global axborot muhitida qaramaqshilik va muammolarni ajratish muhim rol o‘ynaydigan insonning intellektual qobiliyati rivojlanadi [4]. Bilish faoliyatida turli modellar,

semantik kognitiv kartlar, chizmalar, graflar, jadval, diagrammalardan foydalanishga imkon beradi. Shuning uchun ta‘limni axborotlashtirish sharoitida kognitiv kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish jarayoni doirasida hal etish lozim bo‘lgan vazifalardan biri talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida modellar, semantik kognitiv kart, chizma, graf, jadval, diagramma kabilarni yaratishnigg turli usullarini o‘zlashtirishdan iborat. Bizning tadqiqotimizda chizma-tasviriy modellar bilishning hissiy (sezgi, iroda, diqqat) va ratsional (fikrlash faoliyati) darajalarini uyg‘unlashtirish imkonini ochib beruvchi, ularning potentsialiga asoslangan bilish faoliyati natijaviyligini oshirish vositasi sifatida talqin qilindi. Axborotlarni taqdim etishning chizma-tasviriy modeli – bu “ixchamlashtirilgan” metodik va texnologik usullar yig‘indisi va o‘quv materiallarini vizullashtirish demakdir [5].

O‘quv jarayonida chizma-tasviriy modellardan foydalanish amaliyoti tahlili ular orasida quyidagilar keng tarqalganligini ko‘rsatadi: o‘quv elementlarining graf mantig‘i, metareja va N.Erganova tayanch konspekti, M.Minskiyning freym modeli, produksion model, mantiqiy model, semantik tarmoqlar modeli, chizmakonspekt, mental(intellekt) kart. Mazkur modellarining ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz.

N.Erganova tomonidan taklif etilgan o‘quv elementlarining mantiqqa asoslangan grafi tushunchalarning umumiyy mazmunini ochib berish asosida o‘quv axborotini tizimlashtirish va uncha muhim bo‘lmagan, ortiqcha yuk bo‘ladigan matndagi tushuncha va atamalarni is’tesno qilish maqsadida qo‘llaniladi. Bu esa, yuqori qismida axborotning o‘rganilayotgan blokining tayanch tushunchasini qo‘yish orqali graf ko‘rinishida tarmoq tuzilmasini yaratishga imkon beradi. Uning mazmuni umumiyy mohiyatdan kelib chiqqan holda ketma-ketlikda guruhlashtirilgan tushunchalarni ochib beradi [3].

Ta‘limni axborotlashtirish sharoitida kognitiv kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish jarayoni doirasida hal etish lozim bo‘lgan vazifalardan biri talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida modellar, semantik kognitiv kart, chizma, graf, jadval, diagramma kabilarni yaratishnigg turli usullarini o‘zlashtirishdan iborat. Axborotlarni taqdim etishning chizma-tasviriy modeli – bu “ixchamlashtirilgan” metodik va texnologik usullar yig‘indisi va o‘quv materiallarini vizullashtirish hisoblanadi.

O‘quv jarayonida talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda chizma-tasviriy modellarning qo‘yidagi turlaridan foydalanish

24 samarali bo'lishini tajriba-sinov ishlari isbotladi. Bular o'quv elementlarining graf mantig'i, metarejalar, N.Erganovaning tayanch konspekti, M.Minskiyning freym modeli, produktsion model, mantiqiy model, semantik tarmoqlar modeli, chizma-konspekt, mental(intellekt) kart va h.k. Masalan, o'quv materialining asosiy mazmunini ko'rgazmali taqdim etishda tayanch konspektidan foydalanilish mumkin [6]. O'quv elementlarini ko'rgazmali shaklda taqdim etish faoliyatni tashkil etish uchun yo'naltiruvchi asos yaratadi, ijro va nazorat qilishga doir harakatlarni shakllantiradi. Bu bir tomonidan o'rganilayotgan ob'ekt haqida yaxlit bilimlar, boshqa tomonidan ularni shakllantirishga doir o'quv-bilish faoliyatining umumiy tizimini hosil qiladi.

Tayanch konspektidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish axborotning alohida birliklarining asosiy aloqalarini tanlash va e'tibor qaratish; asosiy belgi va ramzlarning o'zaro mosligini hisobga olish asosida o'quv materiali mazmunini aniq tushunish; individual mohiyat kasb etuvchi mantiqiy aloqadorliklar bilan mustaqil ishslash imkoniyatini taqdim etadi.

Intellekt-karta – namoyishlarni o'tkazish, qaror qabul qilish, o'z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma'lumotlarni esda saqlash, aqliy hujumlarni o'tkazish, o'z-o'zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta'llim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda ajoyib vosita bo'lib xizmat qiladi. Intellekt-kartalarni o'qitish jarayonida qo'llashga oid dastlabki tajribalar Toni Byuzen tomonidan amalga oshirilgan.

Respublikamiz olimlaridan M.Urazova va B.Xodjaevlar pedagogik fanlardan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida intellekt-kartalardan foydalanish tajribasini yoritib berishgan [7]. Intellekt-karta o'quv jarayonida qator maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi: kitoblar, maqola, ma'ruzalarni konspektlashtirish; referat, maqola va kurs ishlari yozish; katta hajmdagi axborotlarni tahlil etish va tizimlashtirish; ijodiy topshiriqlarni bajarish; axborotlarni eslab

qolish; taqdimot va asosiy masalalarga e'tibor qaratish. Intellekt-kartalarni qog'ozda ham chizish mumkin. Odatda mazkur usul intellekt-karta ko'rinishida axborotlarni aks ettirish ko'nikmasini shakllantirishning dastlabki bosqichida qo'llaniladi. Mazkur usul uncha katta hajinga ega bo'lмаган axborotlarni tasvirlash uchun qulay, biroq qog'oz variantda qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish qiyin. Shuning uchun kompyuter dasturlari yordamida intellekt-kartalarni tasvirlashga o'tish maqsadga muvofiq. Kompyuter dasturlari asosida tuzilgan intellekt-kartalarni tahrir qilish, kengaytirish, yangi axborotlarni qo'shish, kartalar tizimini yaratish, axborotni gipermant ko'rinishida taqdim etish, intellekt-kartani ishlab chiqish bo'yicha jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish mumkin.

Hozirgi vaqtida intellekt-kartalarni tuzish bo'yicha ko'plab kompyuter dasturlari mavjud va ularni tekinga yuklab olish mumkin:

1) onlayn rejimda intellekt-karta (mindmaps) tuzish uchun Google korporatsiyasining Soggleot ilovasi. Kompyuetrda kartalarni pdf va png formatda saqlash imkonini beradi.

2) xmind (<http://www.xmind.net/>);

3) FreeMind

(<http://freemind.sourceforge.net/>);

4) MindMeister

(<https://www.mindmeister.com/ru>), intellekt-kartalarni chizish uchun onlayn-xizmat, offlayn rejimda ham ishslash imkoniyati mavjud;

5) EDraw (<https://www.edrawsoft.com/freemind.php>).

"Ta'lilda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida mazkur kompyuter dasturlaridan foydalanish asosida intellekt-kartalarni tuzish texnologiyasi tatbiq etildi.

Xulosa qilib aytish joizki, ta'lim mazmunini talabalarda individual kognitiv strategiyalarni tarkib toptirishga xizmat qiluvchi va axborotlarni taqdim etishning chizma-tasviriy modellariga doir o'quv materiallarini bilan boyitish bo'lajak pedagoglarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish shartlaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.
2. Gafurova N.V. Integralnaya model intellektualno-lichnostnogo razvitiya obuchayushchixsyu v sisteme obrazovaniya: Monografiya. – M.: MAKS Press, 2004.– 220s.;
3. Oreshkova S.P. Osipova S.I. Uchebnaya deyatelnost v kontekste formirovaniya umeniy obuchayushchixsyu strukturirovat teoreticheskiy material / S.P. Oreshkova, S.I. Osipova // Sovremennoe problem nauki i obrazovaniya. – 2007. – №6. – S. 24-29/
4. Lavrentev G.V. Innovatsionne obuchayushie texnologii v professionalnoy podgotovke spetsialistov. Chast 2. / G.V. Lavrentev, N.B. Lavrenteva, N.A. Neudaxina-Barnaul: AltGU, 2004. – 232 s. – S.160.

5. Piligin A.A. Poznavatelne strategii shkolnikov: ot individualizatsii – k lichnostno-orientirovannomu obrazovaniyu: Monografiya / A.A. Piligin. – M.: Tvoi knigi, 2012. – 416 s. – S.27.) 25
6. Erganova N.E. Metodika professionalnogo obucheniya: ucheb. posobie dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniy. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2007. – 160 s.
7. Intellekt-kart kak faktor razvitiya professionalnoy kompetentnosti budushix uchiteley // Obrazovanie cherez vsyu jizzn: Nepreryivnoe obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya: material 13-y mejdunar. konf.: v 2 ch. – Vp. 13. – SPb.: LGU im. A. S. Pushkina, 2015. – Ch. I. – S. 137–139